

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMYIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.01.2020.Ped.02.06 RAQAMLI ILMYIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

KARSHIYEV JAXONGIR ABDIRAYIMOVICH

**AUDITORIYADAN TASHQARI MASHG'ULOTLAR JARAYONIDA
TALABALAR MA'NAVIYATINI RIVOJLANTIRISH
TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand - 2023

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Oglavlениye avtoreferata dissertatii doktora filosofii (PhD) po
pedagogicheskim naukam**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Karshiyev Jaxongir Abdirayimovich

Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida talabalar ma'naviyatini
rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish 3

Каршиев Джахонгир Абдирайимович

Совершенствование технологий развития духовности студентов в
процессе внеаудиторных занятий..... 23

Karshiev Jahongir Abdirayimovich

Improvement of technologies for the development of students' spirituality
in the process of extracurricular studies..... 43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of publications..... 47

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.01.2020.Ped.02.06 RAQAMLI ILMY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

KARSHIYEV JAXONGIR ABDIRAYIMOVICH

**AUDITORIYADAN TASHQARI MASHG'ULOTLAR JARAYONIDA
TALABALAR MA'NAVIYATINI RIVOJLANTIRISH
TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand - 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasida № B2022.3.PhD/Ped1266 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertasiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertasiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdu.uz) va "ZiyoNET" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

OlMOV Shirinboy Sharofovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Quronov Muhammadjon
pedagogika fanlari doktori, professor

Narziqulova Dilnoza Xashimjonovna
pedagogika fanlari doktori, dosent

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertasiya himoyasi Samarqand davlat universiteti huzuridagi PhD.03.30.01.2020.Ped.02.06 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «_____» _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: +99866239-12-29, faks: +998366239-17-14, e-mail: samdu_ped_kengash@umail.uz).

Dissertasiya bilan Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: +99866 239-11-51).

Dissertasiya avtoreferati 2023 yil «_____» _____ kuni tarqatildi.
(2023 yil «_____» _____ dagi _____-raqamli reyestr bayonnomasi).

X.I.Ibraimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, p.f.d., professor

Sh.R.O'roqov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, p.f.f.d. (PhD)

N.Sh.Shodiyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
Kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, p.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yoshlarning axborot oqimlarga nisbatan ongli munosabatlarini tarkib toptirish, shuningdek mafkuraviy immunitetini shakllantirish masalalariga ijtimoiy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, har bir mamlakatning o'zining tarixiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlarini inobatga olgan holda prognozlash jarayoniga nisbatan o'zining ta'sirchan ma'naviy yondashuvlarini qo'llash va doimiy o'zgarib turadigan shart-sharoitlarni hisobga olgan holda ularni takomillashtirib borish muhim ahamiyatga ega. Bu esa, tarbiya jarayonining qonuniyatlari va tamoyillariga asoslangan ma'naviy tarbiyaning aniq maqsadga asoslangan texnologiyalarini takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Dunyo ilm-fanida shaxs kamolotini ta'minlash, tarixiy tafakkur mahsuli asosida shaxs tarbiyasining fundamental asoslarini o'rganish, globallashtirish sharoitida yoshlar ongini rivojlantirish tizimlarining didaktik yondashuvlarini tanlashga doir ilmiy-nazariy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, yoshlar ma'naviyatining ijtimoiy-siyosiy voqelikdagi zaruriyati, uning o'ziga xos xususiyatlari, ma'naviyat tushunchasining falsafiy, ijtimoiy va pedagogik jihatlari, ma'naviyatni shakllantirishning nazariy asoslari, ularni tarbiyalashning huquqiy, ijtimoiy va ma'naviy qirralari hamda zamonaviy jamiyat ziddiyatlari masalalariga qaratilgan tadqiqot natijalari muhim ahamiyatga ega. Shuning bilan birgalikda talabalar ma'naviyatini rivojlantirishning auditoriyadan tashqari shakllariga oid texnologiyalarini takomillashtirish zarurati mavjud.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ongu tafakkuri, dunyoqarashi o'zgarib, demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etishda «Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari» degan hayotbaxsh g'oya e'tirof etilmoqda. “Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirishning samarali va ta'sirchan targ'ibot texnologiyalari hamda usullarini ishlab chiqish”¹ vazifalari belgilanib, bu borada yoshlarda ma'naviyatni tarkib toptirish, tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga doir xorijiy tajribani o'rganish, bugungi mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash kabi tadqiqot yo'nalishlari, shuningdek auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida talabalar ma'naviyatini rivojlantirishning ta'sirchan texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”, 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3151-son “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”, 2021 yil 26 martdagi PQ-5040-sonli “Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi PQ-5040-sonli “Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori, <https://lex.uz/docs/5344692>

qarorlari, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-xuquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovasion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ma'naviyatning ijtimoiy, falsafiy, tarixiy, psixologik, pedagogik va sosiologik jihatlari faylasuf, dinshunos, sharqshunos, tarixchi, pedagog, siyosatshunos olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lib, qator dissertasiyalar himoya qilingan, monografiya, kitob, to'plamlar nashr qilingan, tadqiqotlar, maqolalar va ilmiy nashrlarda turli qarashlar, g'oyalar, tamoyillar bayon qilingan.

Xususan, yoshlar ma'naviyatining ijtimoiy-siyosiy voqelikdagi zaruriyati, uning o'ziga xos xususiyatlari S.Shermuxeimedov, N.Komilov, M.Imomnazarov, Q.Nazarov, J.Tulenov, A.Begmatov, M.Bekmurodov, I.Karimov, A.Umarov, N.Jo'rayev, T.Mahmudov, E.Yusupov, A.Zakrulayev, O.Raxmatov, A.Tiksanov, T.Toshlonov, N.Eshonqulov kabilar tomonidan umumiy tarzda o'rganilgan. Muammoning madaniy, ma'naviy, estetik jihatidan respublikamiz olimlaridan S.Nishonova, N.Shodiyev, O.Musurmonova, U.Maxkamov, S.Annamurotova, S.Fayzulina, M.Quronov, Sh.Olimov, O'.O'tanov, A.Raximov, Z.D.Hasanova kabilar tadqiqot ishlarini olib borganlar.

So'nggi yillarda ma'naviyat tushunchasining falsafiy, ijtimoiy va pedagogik jihatlari MDX olimlari tomonidan atroflicha tadqiq etildi. Xususan, A.M.Baybakov, Z.G.Apresyan, A.G.Asmolov, A.N.Basov, A.A.Bodalev, T.Bolotina, A.N.Shmakov, A.A. Batalov, P.M. Batura, A.N. БЫСТРОВА, G.M. Kochetov, A.I. Kravchenko, A.M. Omarov B.S.Gershunskiy, S.V.Bobinova, V.A.Vorobyeva, M.A.Kovalchuk, A.S.Obuxov, L.V.Stroganova, L.V. Zareskaya, M.S.Mirimanova, V.Z.Vulfova va boshqa olimlar tomonidan ma'naviyat tushunchasi, talabalar ma'naviyatini rivojlantirishning zaruriy elementi sifatida tahlil etildi.

Chet el olimlaridan A.Maslou, D.Makklalendom, F.Gersberg, T.Adorno, M.Xorkeymer, J.Ellport, S. Mendus kabilar talabalar ma'naviyatini shakllantirishning nazariy asoslari, ularni tarbiyalashning huquqiy, ijtimoiy va ma'naviy qirralari hamda zamonaviy jamiyat ziddiyatlari masalalarini o'rgandilar. Yuqorida qayd etib o'tilgan ishlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, talabalar ma'naviyatini shakllantirish, milliy ma'naviy muhitni yaratish va mustahkamlash, jamiyatning ma'naviy sog'lom turmush tarzini ta'minlash, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida amalga oshiriladigan ma'naviy-ma'rifiy faoliyatlarni kuchaytirish lozimligini taqozo etadi.

Tadqiqotning dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertasiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar instituti ilmiy-tadqiqot rejasining "Doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va talabalar o'rtasida ilmiy-tadqiqot, ilmiy-ijodiy ishlari" bandi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida talabalar ma'naviyatini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

oliy ta'lim tizimida auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida talabalar ma'naviyatini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslarini tahlil qilish hamda uning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlarini asoslash;

auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida talabalar ma'naviyatini rivojlantirishning sifatini ta'minlashda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashtirish;

oliy ta'lim muassasalarida auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida talabalar ma'naviyatini rivojlantirishning metodologik tamoyillarini aniqlash va uning modelini ishlab chiqish;

oliy ta'lim muassasalarida auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonini samarali tashkil etishda talabalarning tayyorgarlik darajasini oshirishning axborot-metodik ta'minotini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida oliy ta'lim muassasalarida auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda talabalar ma'naviyatini rivojlantirish jarayoni tanlab olinib, tajriba-sinov ishlariga Samarqand davlat chet tillar instituti, Samarqand, Buxoro davlat universitetlari, Jizzax davlat pedagogika universitetlaridan jami 625 nafar respondent talabalar jalb qilingan.

Tadqiqotning predmetini oliy ta'lim tizimida auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida talabalar ma'naviyatini rivojlantirishning mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida mavzuga oid falsafiy, pedagogik, psixologik manbalar, pedagogik kuzatish, ijtimoiy so'rov, oliy ta'limga qo'yilgan davlat talablari va o'quv dasturlarini o'rganish, ilg'or pedagogik tajribalarni umumlashtirish, o'qituvchi va talabalar faoliyatini tahlil qilish, pedagogik prognostika va tashxislash, pedagogik tajriba-sinov ishlarini o'tkazish va natijalarga matematik va statistik qayta ishlash metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim tizimida auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida talabalar ma'naviyatini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari shaxsda ongli munosabatlar tarkib topishining ixtiyoriylik tamoyiliga ko'ra ma'naviy-axloqiy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan motivasion ta'sirini ochib berish asosida aniqlashtirilgan;

talabalar ma'naviyatining shakllanganlik darajasini aniqlash mezonlari shaxs va solum munosabatlarining uzluksiz va o'zaro identiv ta'sirga ekanligiga tayanib ma'naviyatni yuksaltirish ko'rsatkichlari (milliylik, axloqiy-estetik, tarixiylik,

ta'limiy-tarbiyaviy) mazmuniga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan; auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida talabalar ma'naviyatini rivojlantirish texnologiyalari (shaxsga yo'naltirilgan, hamkorlik, istiqbolli-ilg'or, rivojlantiruvchi) axborot asrida yuzaga kelgan yoshlar ongidagi zamonaviy stereotiplar mazmuniga mos bog'lanishlarni belgilash asosida modernizasiyalashtirilgan;

tarbiyaviy ishlar mazmuniga oid kompetensiyaviy talablar (motivasion-qadriyatli, harakatli-ijodiy, kreativ-ijodkorlik) muloqotga oid persektiv mexanizmlarning talabalar ma'naviyatini shakllantirishga ijobiy ta'siri mavjudligi sababli shaxsga yo'naltirilgan differensial yondashuv asosida boyitilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim tizimida auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida talabalar ma'naviyatini rivojlantirishning mazmuni, shakl, metod va vositalari aniqlangan va asoslab berilgan hamda uni amaliyotga tadbqiq etishning yaxlit mexanizmi tavsiya etilgan;

oliy ta'lim tizimida auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida talabalar ma'naviyatini rivojlantirish modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertasiya tadqiqotining nazariy-metodologik asoslari, unga mos darajadagi metodlar va tadqiqot metodikalari majmuasining, zamonaviy matematik-statistika usullarining ishonchliligi va samaradorligi hamda empirik tadqiqot natijalarini to'g'ri talqin qilinishi bilan ta'minlangan. Ma'lumotlarni qayta ishlash matematik-statistika metodlarini samarali qo'llashni ta'minlovchi standart dasturiy vositalarda amalga oshirilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati oliy ta'lim tizimida auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida talabalar ma'naviyatini rivojlantirishning asosiy metodologik prinsiplari, yo'nalishlari hamda qoidalari takomillashtirilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta'lim tizimida auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida talabalar ma'naviyatini rivojlantirish metodik tizimining ishlab chiqilgan modelidan oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil qilishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Oliy ta'lim tizimida talabalar ma'naviyatini rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan hamda ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayoni rivojlanganligini baholash mezonlari va ko'rsatkichlaridan "Pedagogika nazariyasi va tarixi", "Pedagogik mahorat", "Pedagogik texnologiya", "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" kabi fanlar bo'yicha o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oliy ta'lim tizimida auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida talabalar ma'naviyatini rivojlantirish yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

oliy ta'lim tizimida auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida talabalar ma'naviyatini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari shaxsda ongli munosabatlar tarkib topishining ixtiyoriylik tamoyiliga ko'ra ma'naviy-axloqiy,

milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan motivasion ta'sirini ochib berish asosida aniqlashtirishga oid tavsiyalardan o'quv-tarbiya jarayonida foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2022 yil 12 dekabrda 02-07-4468/04-son ma'lumotnomasi). Natijalar oliy ta'lim tizimida auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida talabalar ma'naviyatini rivojlantirish manbalarini va resurslarini kengaytirish uchun tamoyillarni shakllantirishga xizmat qilgan;

talabalar ma'naviyatining shakllanganlik darajasini aniqlash mezonlari shaxs va solum munosabatlarining uzluksiz va o'zaro identiv ta'sirga ekanligiga tayanib ma'naviyatni yuksaltirish ko'rsatkichlari (milliylik, axloqiy-estetik, tarixiylik, ta'limiy-tarbiyaviy) mazmuniga ustuvorlik berish asosida takomillashtirish, tarbiyaviy ishlar mazmuniga oid kompetensiyaviy talablar (motivasion-qadriyatli, harakatli-ijodiy, kreativ-ijodkorlik) muloqotga oid persektiv mexanizmlarning talabalar ma'naviyatini shakllantirishga ijobiy ta'siri mavjudligi sababli shaxsga yo'naltirilgan differensial yondashuv asosida boyitishga oid materiallardan Buxoro davlat universitetida bajarilgan OT-F1-002 raqamli "Yoshlarda milliy g'oya va mafkuraviy immunitetni shakllantirishning psixologik mexanizmlari" (2017-2021 yy) fundamental loyihasini bajarishda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2022 yil 12 dekabrda 02-07-4468/04-son ma'lumotnomasi). Natijada oliy ta'lim muassasalarida talabalar ma'naviyatini rivojlantirishda auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonini takomillashtirishga xizmat qilgan;

auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida talabalar ma'naviyatini rivojlantirish texnologiyalari (shaxsga yo'naltirilgan, hamkorlik, istiqbolli-ilg'or, rivojlantiruvchi) axborot asrida yuzaga kelgan yoshlar ongidagi zamonaviy stereotiplar mazmuniga mos bog'lanishlarni belgilash asosida modernizasiyalashtirishga oid materiallar "Innovatsion-pedagogik faoliyatni tashkil etish texnologiyasi" nomli darslik mazmuniga singdirilgan va o'quv jarayoniga tatbiq etilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2022 yil 12 dekabrda 02-07-4468/04-son ma'lumotnomasi). Natijada oliy ta'lim muassasalarida auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonini samarali tashkil etishning axborot-metodik ta'minotini ishlab chiqishga xizmat qilgan

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertasiya tadqiqoti mavzusi bo'yicha 18 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik (PhD) dissertasiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shundan, 4 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiyaning hajmi 120 sahifani tashkil qiladi. Dissertasiya matni kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti, predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda

ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ularning ishonchliligi, ilmiy, amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar, shuningdek, dissertasiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertasiyaning “ **Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida talabalar ma'naviyatini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida talabalar ma'naviyatini rivojlantirishning tarixiy-tadrijiy taraqqiyoti o'rganilib, pedagogik muammo sifatida tahlil qilingan. Shuningdek, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida talabalar ma'naviyatini rivojlantirishning amaldagi holati aniqlangan.

Ma'lumki, bugun dunyo ulkan tahdid ostida qolgan bir vaqtda xalqimiz, xususan, yoshlarimizning ma'naviyatini rivojlantirish zarur. Oliy ta'lim muassasalaridagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligi, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Hozirgi kunda, ya'ni jamiyat hayotining modernizasiyalashish sharoitida jamiyatda ma'naviy sohada quyidagi vazifalarni bajarishimiz lozim:

- yoshlarimizni ma'naviy yangilanish va islohotlar jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish, ularning kuch va salohiyatini ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik kabi ezgu maqsadlarga xizmat qildirish, ma'naviyatning kuch-qudratidan ezgu maqsadlar yo'lida samarali foydalanish, ijtimoiy munosabatlarni insoniylik g'oyalari asosida rivojlantirish;

- turli qarash va fikrga ega bo'lgan ijtimoiy qatlamlar, siyosiy kuch va harakatlarning o'ziga xos orzu-intilishlarini uyg'unlashtiruvchi g'oyalar: Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi barcha yurtdoshlarimiz uchun muqaddas maqsadga aylanishiga erishish, ko'ppartiyaviylik va plyuralizm tamoyillariga rioya qilgan holda milliy hamjihatlikni yanada mustahkamlash;

- ota-bobolarimiz dinining gumanistik mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirish borasidagi ishlarni davom ettirish, din xalqimizning ming yillik tarixi, bugungi ma'naviy hayotimizning asosi, Alloh doimo qalbimizda, yuragimizda ekanligining yurtdoshlarimiz ongiga singdirib borish.

Ma'naviyat tushunchasi murakkab ijtimoiy hodisa bo'lib, o'zida juda keng ma'nolarni qamrab oladi. «Ma'naviyat—odamning ruhiy va aqliy olami majmuidir ... Ma'naviyat - jamiyatning, millatning va yoki ayrim bir kishining ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtiruvchi tushuncha. Ma'naviyat- inson va jamiyat madaniyatining negizi, inson va jamiyat hayoti ma'lum yo'nalishining bosh omilidir»².

«Ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir, desak, menimcha, tariximiz va bugungi hayotimizda har tomonlama o'z tasdig'ini topib borayotgan haqiqatni yaqqol ifoda etgan bo'lamiz»³. Yosh avlodning


² Ibrohimov A. va boshq. Vatan tuygusi / A.Ibrohimov, X.Sultonov, N.Jo'raev. -T.: «O'zbekiston», 1996. – B. 111.

³ Karimov I. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 19-20.

ma'naviy-axloqiy qiyofasini takomillashtirish uchun har bir millat o'z milliy ma'naviyati an'alariga tayanib ish ko'rgandagina samarali natijalarga erishish mumkin. Ma'naviyat madaniyat va siyosat tushunchalar bilan uzviy bog'liq (1-rasm).

Oliy ta'lim muassasalarida ma'naviyatni rivojlantirish avvalo, dars mashg'ulotlari hamda auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida amalga oshiriladi. U yoshlarda kasbiy, axloqiy tasavvurlar, tushunchalar, odatlar, mehnat malakalari va xulqni shakllantirishni, shuningdek, kishining tashqi olamga, jamiyatga, jamoaga va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini nazarda tutadi.

Dissertasiyaning “**Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida talabalar ma'naviyatini rivojlantirishning mazmun, shakl, metod va vositalari**” deb nomlangan ikkinchi bobida oliy ta'lim muassasalarida auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida talabalar ma'naviyatini rivojlantirishning mazmuni, zamonaviy shakl, metod va vositalari hamda jarayon modeli yoritilgan.



1-rasm. Ma'naviyat, madaniyat va siyosatning o'zaro uzviyligi

Jamiyatda ma'naviyatning eng muhim yo'nalishi madaniy faoliyat sohasi sifatida ma'naviyat va ta'lim o'rtasidagi munosabatlar muammosi bilan uzviy bog'liq bo'lib, ilmiy tadqiqotlarda ushbu yo'nalish atroflicha o'rganilib kelinmoqda. Oliy ta'lim muassasalari ma'naviyatni rivojlantirishning eng muhim institusional ko'rsatkichidir, shuning uchun ta'lim tizimining maqsadi jamiyatda ma'naviyatni yuksaltirish darajasini belgilaydi va shu bilan uning qiymat integratsiyasi hamda madaniy bir xilligiga ta'sir qiladi.

Oliy ta'limda amalga oshiriladigan ma'naviy tarbiya tizimining xarakterli xususiyati shundan iboratki, bu yerda tarbiya jarayonining maqsadi, mazmuni, vazifalarini belgilashda va uni tashkil etishda pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlaridan, umuminsoniy va milliy axloq talablaridan kelib chiqadigan kasb odobi me'yorlariga asoslanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida talabalar ma'naviyatini rivojlantirish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirishi lozim:

- talabalarni ijtimoiy qarashlariga, hulqiga, qiziqishiga, dunyoqarashiga va boshqa jihatlarini o'rganishda muayyan davr, shart-sharoitlarning o'ziga xosligidan kelib chiqib baho berish;

- talabalarni o'ziga xos turmush tarzini tahlil qilish va o'rganish. Bunda talabalarining ijtimoiy holati, hayot kechirish tarzi va uning rivojlanishini nazariy va empirik jihatdan o'rganish;

- talabalarining har tamonlama ma'naviy rivojlanishini o'rganish va tahlil qilish. Mavjud ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar, muhitning o'zgarishi oqibatida avlodlar o'rtasidagi doimiy bog'liqlikni dinamik o'rganish.

Ma'naviy tarbiya — taraqqiyot taqozosi, jamiyat rivojining o'ziga xos omili ekani shubhasiz. Ammo ayni vaqtda u talabalarining axloqiy qiyofasi, qalbi va ongini egallayotgan tamoyillar mazmun-mohiyatini belgilaydigan, ya'ni, shakllanib kelayotgan avlodning ma'naviyatiga katta ta'sir qiladigan, bu sohadagi ma'naviy mezonlarni shakllantiradigan va mustahkamlaydigan eng muhim omillardan biridir.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy tarbiyani maqsadga muvofiq tashkil etish, tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligini oshirish zarur. Tarbiya tizimining nazariy asosi sharqona va milliy qadriyatlardan tashkil topgan bo'lishi kerak. Zero, tarbiya sohasi islohoti bugungi eng dolzarb, ertangi taqdirimizni hal qiluvchi muammoga aylanmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarining auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarini tashkil etish pedagogik tizimining asosiy tarkibiy qismlari ishlab chiqildi (1-jadval).


Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda pedagog bilan talabaning hamkorlik qilishi zarurligi bekor qilinmaydi, lekin u darsdagiga nisbatan boshqacha -asosan bilvosita, o'quv materiali (sxemalar, jadvallar, yo'l-yuriklar, maxsus tuzilgan ma'lumotnomalar va hokazolar)ni tegishli tarzda tashkil etish orqali amalga oshiriladi.

Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishda pedagogning yo'naltiruvchi ta'siri ostidagi talabalarining o'zini-o'zi tartibga solish, o'zini-o'zi nazorat qilishi asosiga ta'lim muassasasida, kutubxonada va uyda yakka tartibdagi reja asosida o'tkaziladigan mustaqil mashg'ulotlar yetakchi shaklga aylanishi kerak. Bunda auditoriyadan tashqari mashg'ulotda ta'limning moddiy bazasi: qo'shimcha adabiyotlar, ko'rgazmali qo'llanmalar, didaktik materiallar, texnika vositalaridan oqilona foydalanish ko'zda tutiladi.

Oliy ta'lim muassasalari talabalari ma'naviyatini rivojlantirish modeli ishlab chiqildi (2-rasm).

Talabalar ma'naviy kompetensiyasining tarkibiy qismlari	Talabalar ma'naviyatini rivojlantirish bo'yicha auditoriyadan tashqari tarbiyaviy ishlarning mazmuni	Oliy ta'limda auditoriyadan tashqari ishlarni tashkil etish shakllari
<p>Shaxs ma'naviyati bloki:</p> <p>hissiy va ma'naviy-psixologik;</p> <p>intellektual-madaniy</p>	<p>Talabalar ongida "ma'naviyat" tushunchasini shakllantirish; ijtimoiy-madaniy idrok haqidagi g'oyalarning ma'naviy o'zaro ta'sirining psixologik asosi sifatida.</p> <p>Dunyoqarashning rivojlantirish, g'oyalar va odamlarga, o'ziga, atrofimizdagi dunyoga bo'lgan munosabatni madaniy faktlar sifatida qadrlash, voqelikni an'anaviy va zamonaviy sivilizasiya shakllarida bilish;</p> <p>Odob-axloq normalari (og'zaki va og'zaki bo'lmagan), sog'lom turmush tarzi, shaxs ma'naviyati va hayotdagi muvaffaqiyat o'rtasidagi munosabatlar haqidagi g'oyalarni ishlab chiqish. Ma'naviy qadriyatlarni muhim shaxsiy boylik va yutuq sifatida qabul qilishga ko'maklashish.</p>	<p>Ma'ruza mashg'uloti "Ma'naviyat va men": boshlang'ich, o'rta, yuqori daraja.</p> <p>Seminarlar: "O'zingizni va boshqalarni biling", "Muloqot madaniyati nima", "Salomatlik-bizning tanlovimiz", "Milliy qadriyatlar va an'analar"</p> <p>"Ma'naviyat va karyera" trening mashg'ulotlari</p>
<p>Ma'naviyat va ijtimoiy hamkorlik bloki:</p> <p>shaxs ma'naviyatini amalga oshiruvchi amaliy ko'nikma va malakalar</p>	<p>O'zini namoyon qilish, faollik va ijtimoiy o'zaro ta'sirning ma'naviyat sohasida barqaror ko'nikma va qobiliyatlarni shakllantirish va rivojlantirish.</p> <p>Ma'naviy jihatdan o'zini o'zi anglash natijasida muvaffaqiyat vaziyatini amalga oshirish</p>	<p>Talabalar ijodiy va o'yin jamoalari: talabalar teatri; KVN jamoasi; munozara klubi; sport klubi.</p> <p>Qiziqarli uchrashuvlar klubi. Adabiy ijod xonasi. muloqot treninglari. Jamoaviy tadbirlar (talabalarga bag'ishlangan tadbirlar, fakultet kunlari).</p>

1-jadval. Oliy ta'lim talabalarining auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarini tashkil etish pedagogik tizimining asosiy tarkibiy qismlari



2.3.1-rasm. Oliy ta'lim muassasalari talabalari ma'naviyatini rivojlantirish modeli.

Ishlab chiqilgan model talabalar ma'naviyatini rivojlantirish uchun pedagogik shart-sharoitlar hamda auditoriyadan tashqari ishlarni tashkil qilish va o'tkazish metodikasi mazmunan takomillashtirishga xizmat qiladi. Talabalar ma'naviyatini rivojlantirish modelining maqsadni belgilash komponentida malaka talablari asosida ularda ma'naviy fazilatlarni tarkib toptirishga e'tibor qaratilgan. Jumladan, uslubiy blokda pedagogik shart-sharoitlar, tarkibiy blokda ma'naviyatni rivojlantirish mazmuni, mezonli blokda mezon va darajalar, natija blokida natija yoritilgan.

Dissertasiyaning “ **Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida talabalar ma'naviyatini rivojlantirishning tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish**” nomli uchinchi bobida tajriba-sinov ishlari mazmuni va natijalari bayon etilgan.

Tadqiqot ishini samarali amalga oshirish uchun tajriba-sinov dasturi tuzilgan. Tajriba-sinov ishlari ushbu dastur asosida olib borilgan.

Dasturda tajriba-sinov ishlarining maqsadi va vazifalari, uni amalga oshirish bosqichlari hamda natijalarini aniqlash bo'yicha ma'lumotlar o'z aksini topgan.

Tajriba-sinov dasturiga asosan muammoning amaliyotdagi holati o'rganilgan. Olib borilishi kerak bo'lgan tajriba-sinov ishlari loyihalashtirilgan, eksperiment olib boruvchi o'qituvchilar tanlangan. Ular uchun dars ishlanmalari, metodik tavsiyalar ishlab chiqilib, talabalar ma'naviyatini rivojlantirishning pedagogik asoslarini takomillashtirishga qaratilgan ta'kidlovchi, shakllantiruvchi hamda umumlashtiruvchi ishlar amalga oshirilgan, ular uchun anketa savolnomalari, ishlanmalar, tarqatma materiallar tayyorlab berilgan.

Samarqand, Buxoro davlat universitetlari, Jizzax davlat pedagogika universiteti, Samarqand davlat chet tillari instituti tajriba-sinov maydonchasi etib belgilangan. Tajriba-sinov jarayoniga jalb qilingan guruhlar bilim darajalarini baholash mezonlari ishlab chiqilgan. Barcha guruhlar o'zaro teng vaziyatda va bir xil mazmunda tajriba-sinovdan o'tkazilgan. Guruhlarda o'tkazilgan tajriba-sinov jarayonlariga 625 nafardan ortiq talabalar jalb etilgan. Shundan 308 nafari tajriba guruhida va 317 nafari nazorat guruhida ishtirok etishdi. Talabalar ma'naviyatini rivojlantirish bo'yicha nazariy va amaliy bilim darajalarini belgilovchi so'rovnoma ko'rsatkichlari asosida olingan natijalarni umumlashtirib, foizlarni respondentlar sonida aniqlagan holda o'rtacha qiymati tajriba oxirida quyidagicha bo'ldi (2-jadval).

2-jadval

O'tkazilgan tajriba-sinov natijalari

Talabalarning o'zlashtirish darajalari	Tajriba guruhida m=308 X _i		Nazorat guruhida n=317 Y _i	
	Tajriba boshida	Tajriba oxirida	Tajriba boshida	Tajriba oxirida
Yuqori	118 (38,5%)	139 (45 %)	80 (25%)	82 (26%)
O'rta	93 (30%)	97 (31,5%)	97 (30,5%)	106 (33,5%)
Quyi	97 (31,5%)	72 (23,5%)	140 (44,5%)	129 (40,5%)

Olingan qiymatlar asosida Student-Fisher kriteriyasini qo'llab matematik-statistik tahlil qilindi.

Tajriba va nazorat sinfdagi baholash natijalarini mos ravishda 1 va 2-tanlanmalar deb olsak, quyidagi variasion qatorlarga ega bo'lamiz:


1-tanlanma X_i : yuqori; o'rta; quyi;
 (tajriba guruhi) n_i : 139; 97; 72.

$m=308$

2-tanlanma Y_j yuqori; o'rta; quyi;
 (nazorat guruhi) n_j 82; 106; 129.

$n=317$

Bu tanlanmalarga mos kelgan diagrammani chizamiz:



3-rasm. Tajribadan keyingi umumiy ko'rsatkichlar diagrammasi

Diagrammada qayd etilgan grafiklardan anglanadiki, tajribadan oldingi va keyingi modal qiymatlari mos ravishda $M_t = 5$ va $M_n = 3$, ya'ni ular orasidagi farq yetarli darajada bo'lib, $M_t > M_n$ ekan. Bu esa, o'z navbatida, bu tanlanmalar uchun mos o'rta qiymatlar ham $X > Y$ shartlarni oldindan qanoatlantirishini ko'rsatadi. Ularni quyidagi formula asosida hisoblaymiz:

$$\bar{X} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^{n=3} n_i x_i = \frac{1}{308} (139 \cdot 5 + 97 \cdot 4 + 72 \cdot 3) = \frac{1}{308} (695 + 388 + 216) = \frac{1299}{308} = 4,2$$

$$\bar{Y} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^{n=3} n_i y_i = \frac{1}{317} (82 \cdot 5 + 106 \cdot 4 + 129 \cdot 3) = \frac{1}{317} (410 + 424 + 387) = \frac{1221}{317} = 3,8$$

Demak, tajriba guruxida o'rtacha o'zlashtirish nazorat guruxida o'rtacha o'zlashtirishdan katta ekan: $X > Y$

Yuqoridagi natijalarga asoslangan holda tajriba-sinov ishlarining sifat ko'rsatkichlarini hisoblaymiz.

Bizga ma'lum $\bar{X}=4,2$; $\bar{Y}=3,8$; $\Delta_m=0,06$; $\Delta_n=0,06$ ga teng.

Bundan sifat ko'rsatkichlari:

$$K_{yco} = \frac{(\bar{X} - \Delta_m)}{(\bar{Y} + \Delta_n)} = \frac{4,2 - 0,06}{3,8 + 0,06} = \frac{4,14}{3,86} = 1,07 > \mathbf{1};$$

$$K_{o\ddot{o}\ddot{o}} = (\bar{X} - \Delta_m) - (\bar{Y} - \Delta_n) = (4,2 - 0,06) - (3,8 - 0,06) = 4,14 - 3,74 = 0,4 > \mathbf{0};$$

Olingan natijalardan o'qitish samaradorligini baholash koeffitsiyenti birdan kattaligi va bilish darajasini baholash koeffitsiyenti noldan kattaligini ko'rish mumkin. Bundan ma'lumki, tajriba guruhidagi o'zlashtirish nazorat guruhidagi o'zlashtirishdan yuqori ekan. Xullas, talabalar ma'naviyatini rivojlantirish bo'yicha nazariy va amaliy bilim darajalarini aniqlash yuzasidan respondentlar bilan olib borilgan tajriba-sinov ishlari samardorligi yuqori bo'lganligi ma'lum bo'ldi.

XULOSA

1. Jamiyatimiz uchun muhim bo'lgan shaxs ma'naviyatining milliy g'oya va milliy ma'naviy qadriyatlar bilan uyg'unligini, uzviylikini, yaxlit bog'liqligini e'tirof etgan holda talabalarda o'z-o'ziga ishonch, o'zlikni anglash, e'tiqod, ma'naviy-axloqiy his-tuyg'ularini rivojlantirish zarurligi aniqlandi.

2. Ma'naviyat tushunchasining ijtimoiy-falsafiy va ijtimoiy-siyosiy talqini, uning mazmuni hozirgi jamiyatdagi millatlar, irqalar, elatlar, xalqlar, madaniyatlar, qarashlar, mafkuralar xilma-xilligi sharoitida o'zaro hamkorlik va bir-birini qo'llab-quvvatlash, dunyo xalqlarining bir-birini anglash jarayonini, ular o'rtasidagi o'zaro hamkorlik, tenglik, barqarorlik, o'zaro yordam, tinch-totuv yashashlikni bildiradi.

3. Oliy ta'lim jarayonida talabalarda ona-Vatanni sevish, oilani e'zozlash, millatga sadoqat, o'z yurti, xalqi, mehnatkash insonlar manfaatini o'z shaxsiy manfaati bilan uyg'unlashtirish tuyg'usini tarbiyalash va fidoiy, adolatli, insonparvar, vatanparvar, mehnatsevar shaxs bo'lish ehtiyojini tarkib toptirish hamda ularga o'z fuqarolik burchi va mas'uliyati, huquq va majburiyati kabi tushunchalar haqida ma'lumot berib, bu tushunchalarni o'zlarida tarbiyalash malakalarini hosil qilish, demokratik huquqiy davlat va jamiyat qurish asosi ekanligi aniqlandi.

4. Talaba ma'naviyati uning ijtimoiy-siyosiy faolligi, ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarligi, individual psixologik sifatlaridan iborat bo'lib, u mustahkam ijtimoiy-siyosiy bilimlarga ega bo'lish, madaniy ko'nikma va malakalarni egallash, shaxsning huquq va erkinliklari, shaxslararo munosabatlarni egallash, jamiyat tomonidan qabul qilingan axloq kodeksi, kundalik hayotda ijtimoiy qoida va prinsiplariga amal qilish, oilada, mahallada, jamiyatda insoniy xulq-atvor me'yorlari, intizom asosida faoliyat ko'rsatishga rioya qilib, mamlakatni, millatni

ravnaq toptirishga o'z hissasini qo'shish, mas'uliyat, iymon, e'tiqod kabi fazilatlariga ega bo'lib, insonparvarlik, vatanparvarlik, intellektual salohiyatni o'zida tarkib toptirishdir.

5. Auditoriyadan tashqari ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil qilishda Sharq mutafakkirlarining shaxs ma'naviyatini tarbiyalash yo'llari to'g'risidagi fikrlari, insoniy burch, mas'uliyat va majburiyatni anglashni tarbiyalashning asosi hisoblanib, talabalarda insoniylik his-tuyg'ularini rivojlantirish, ularning ma'naviy fazilatlarini yuksaltirishga ko'maklashadi. Chunki, ajdodlarimizning yosh avlod tarbiyasi to'g'risidagi ta'limoti ma'naviy-axloqiy ong, tafakkur, iymon-e'tiqod, fidoiylik, kamtarinlik, mehr-oqibatli bo'lish, insonparvarlik kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini teranroq anglash va ular asosida ish yuritishga odatlantirishga xizmat qiladi.

6. Oliy ta'lim muassasalarida auditoriyadan tashqari ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida talabalar ma'naviyatini rivojlantirishning o'ziga xos tamoyillari aniqlandiki, ular mazkur jarayonning samarali bo'lishini ta'minlaydi. Ushbu tamoyillar milliy mafkuraning g'oyaviy yo'nalishi, uning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda muhim tarbiya vositasiga aylanadi hamda tarbiyaning g'oyaviyligi va maqsadga yo'naltirilganligi qonuniyatiga amal qilishi bilan shaxs ma'naviyatini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

7. Talabalar ma'naviyatini rivojlantirishda auditoriyadan tashqari ma'naviy-ma'rifiy ishlarning imkoniyati cheksiz bo'lib, talabalar bu borada metodik jihatdan ta'minlanganligi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan qurollanganligi katta ahamiyat kasb etishi asoslandi. Shu jihatdan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni noan'anaviy shakllar asosida talabalarning qiziqishlari, bilim darajasini hisobga olgan holda hamkorlikda o'qitish, loyihalar, ishbop o'yinlar, musobaqalar, intellektual ring, teatrlashtirilgan mashg'ulotlar, kichik guruhlarda ishlash, ijod darslari, zakovat o'yinlari, bahs-munozaralar, matbuot konferensiyalari, viktorinalar, mo'jizalar maydoni, ekskursiyalar, muammoli vaziyatlarni yechish, kitobxonlar konferensiyalari, to'garaklar kabi interfaol metod va shakllarda olib borilgan ishlar samarali natijalarga olib kelishi isbotlandi.

8. Oliy ta'lim muassasalarida auditoriyadan tashqari ma'naviy-ma'rifiy ishlarini takomillashtirish talabalarni yetuk mutaxassislar qilib tarbiyalash hamda ularda ma'naviy fazilatlarini rivojlantirishning asosiy negizini tashkil etadi. Chunki auditoriyadan tashqari ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida talabalarda mehr-muruvvat, adolat, to'g'rilik, halollik, sofdillik, kamtarlik, fidoiylik, vijdon, or-nomus, vatanparvarlik, insonparvarlik, go'zallikni sevish, yaxshilik, undan zavqlanish, irodalilik, matonat kabi fazilatlar mushtarak holda rivojlanadi.

TAVSIYALAR

- talabalar ma'naviyatini rivojlantirishning mazunini boyitishga xizmat qiladigan zamonaviy pedagogik, ilmiy-metodik ta'minotini kuchaytirish;
- talabalar ma'naviyatini rivojlantirishning yaxlit tizimini ishlab chiqish va buni amalga oshirishda oliy ta'lim muassasalari, «Yoshlar ittifoqi», kasaba

uyushmasi, xotin-qizlar maslahat kengashi, oila, mahallalarning hamkorlikdagi faoliyatini uyg'unlashtirish;

- oliy ta'lim muassasalarida ma'naviyat va ma'rifat kunlarini tashkil etish va o'tkazishda talabalar ma'naviyatini rivojlantirishga qaratilgan Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 tashabbus doirasidagi tadbirlarni, ayniqsa, mamlakatimizda o'tkazilayotgan islohotlarning samarasi, dunyo voqyealari bilan tanishtirishda kutubxonalar, madaniyat saroylari, kino-teatr va muzeylar bilan amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ
PhD.03/30.01.2020.Ped.02.06 ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ ШАРОФА
РАШИДОВА**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

КАРШИЕВ ЖАХОНГИР АБДИРАЙИМОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ РАЗВИТИЯ
ДУХОВНОСТИ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ВНЕАУДИТОРНЫХ
ЗАНЯТИЙ**

13.00.01 – Теория педагогики. История педагогических учений

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PHD)
ПО ПЕДАГОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Самарканд – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией Республики Узбекистан за номером B2022.3.PhD/Ped1266.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков.

Автореферат диссертации размещён на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-странице Научного совета (www.samdu.uz) и информационно-образовательном портале “ZiyoNET” (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Олимов Ширинбой Шарофович
доктор педагогических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Курунов Мухаммаджон
доктор педагогических наук, профессор

Нарзикулова Дилноза Хашимжоновна
доктор педагогических наук, доцент

Ведущая организация:

Каршинский государственный университет

Защита диссертации состоится «_____» _____ 2023 года в _____ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.01.2020.Ped.02.06 при Самаркандском государственном университете. (Адрес: 140104, город Самарканд, Университетский бульвар, дом 15. Тел.: +99866239-12-29, факс: +998366239-17-14, e-mail: samdu_ped_kengash@umail.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного университета (зарегистрирована под №_____). (Адрес: 140104, город Самарканд, Университетский бульвар, дом 15. Тел: +99866 239-11-51.

Автореферат диссертации разослан «_____» _____ 2023 года.
(реестр протокола рассылки № _____ от «_____» _____ 2023 года).

Х.И.Ибраимов
Председатель Научного совета по
присуждению учёных степеней, д.п.н., профессор

Ш.Р.Ураков
Учёный секретарь Научного совета по
присуждению учёных степеней, д.ф.п.н., (PhD)

Н.Ш.Шодиев
Председатель Научного семинара при Научном совете
по присуждению учёных степеней, д.п.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире вопросы формирования осознанного отношения молодёжи к информационным потокам, а также формирования у них идеологического иммунитета рассматриваются как одно из приоритетных направлений общественного развития. В частности, для каждой страны важно применять свои действенные духовные подходы к процессу прогнозирования с учётом своих исторических и социально-экономических особенностей развития и совершенствовать их, принимая во внимание постоянно меняющиеся условия. Это обуславливает необходимость совершенствования технологий духовного воспитания, основанных на конкретных целях, закономерностях и принципах воспитательного процесса.

В мировой науке проводятся научно-теоретические исследования по обеспечению совершенства личности, изучению фундаментальных основ воспитания личности на основе продукта исторического мышления, выбору дидактических подходов систем развития сознания молодёжи в условиях глобализации. В частности, большую значимость имеют результаты исследования, ориентированные на изучение необходимости развития духовности молодёжи в общественно-политической действительности, её специфических особенностей, философских, социально-педагогических аспектов понятия духовности, теоретических основ формирования духовности, правовых, социальных и духовных аспектов воспитания молодёжи, а также противоречий современного общества. В то же время возникает необходимость совершенствования технологий, связанных с внеаудиторными формами развития духовности студентов.

В результате широкомасштабных реформ и созидательных работ, осуществлённых в нашей стране, изменились самосознание и мировоззрение нашего народа, при построении демократического правового государства и гражданского общества ведущей была признана животворная идея «От национального возрождения к национальному подъёму». Были обозначены задачи «разработки эффективных и действенных пропагандистских технологий и методов реализации духовно-воспитательной работы»⁴, и в связи с этим важное значение приобретает разработка научно обоснованных предложений и рекомендаций по таким направлениям исследования, как формирование духовности у молодёжи, изучение зарубежного опыта организации воспитательной работы, детальный анализ и оценка современных идеологических процессов с научно-практической точки зрения, а также по совершенствованию эффективных технологий развития духовности студентов в ходе внеаудиторных занятий.

Данное диссертационное исследование в определённой степени служит реализации задач, обозначенных в Постановлениях Президента

⁴ Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-5040 от 26 марта 2021 года «О мерах по коренному совершенствованию системы духовно-просветительской работы», <https://lex.uz/docs/5344680>

Республики Узбекистан № ПП-2909 от 20 апреля 2017 года «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования», № ПП-3151 от 27 июля 2017 года «О мерах по дальнейшему расширению участия сфер и отраслей экономики в повышении качества подготовки специалистов с высшим образованием», № ПП-5040 от 26 марта 2021 года «О мерах по коренному совершенствованию системы духовно-просветительской работы», Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года, а также других нормативно-правовых документах, относящихся к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением науки и технологий в республике I. «Формирование системы и инновационных идей и пути их внедрения в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информатизированного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Социальные, философские, исторические, психологические, педагогические и социологические аспекты духовности были изучены философами, религиоведами, востоковедами, историками, педагогами, политологами, в данном направлении защищён ряд диссертаций, изданы монографии, книги, сборники, в исследованиях, статьях и научных публикациях изложены различные взгляды, идеи и принципы.

В частности, необходимость развития духовности молодёжи в общественно-политической действительности, ее специфические особенности в общем смысле были изучены таким учёными, как С. Шермухамедов, Н. Комилов, М. Имомназаров, К. Назаров, Ж. Туленов, А. Бегматов, М. Бекмуродов, И. Каримов, А. Умаров, Н.Джураев, Т.Махмудов, Э.Юсупов, А.Закрулаев, О.Рахматов, А.Тиксанов, Т.Тошлонов, Н.Эшонкулов. В культурно-духовном и эстетическом аспектах проблемы исследования проводили учёные нашей республики С. Нишонова, Н. Шодиев, О. Мусурмонова, У. Махкамов, С. Аннамуротова, С. Файзулина, М. Куронов, Ш. Олимов, У. Утанов, А. Рахимов, З.Д. Хасанова и другие.

В последние годы философские, социальные и педагогические аспекты концепции духовности были всесторонне исследованы учеными СНГ. В частности, А.М.Байбаков, З.Г.Апресян, А.Г.Асмолов, А.Н.Басов, А.А.Бодалев, Т.Болотина, А.Н.Шмаков, А.А. Баталов, П.М. Батура, А.Н. Быстрова, Г.М. Кочетов, А.И. Кравченко, А.М. Омаров Б.С.Гершунский, С.В.Бобинова, В.А.Воробьева, М.А.Ковальчук, А.С.Обухов, Л.В.Строганова, Л.В. Зарецкая, М.С.Мириманова, В.З.Вульфова и другие учёные проанализировали понятие духовности как необходимый элемент развития духовности студентов.

